

**2024-2025-O'QUV YILIDA**  
**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**  
**9-SINF**  
**O'QUVCHILARI UCHUN**  
**JISMONIY TARBIYA**  
**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSİYASINI**  
**O'TKAZISH BO'YICHA**  
**METODIK TAVSIYA VA MATERİALLAR**

**2024/2025 – O‘QUV YILIDA UMUMTA’LIM MAKTABALARINING 9 – SINF  
O‘QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O‘TKAZISH  
BO‘YICHA JISMONIY TARBIYA FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI.**

**Tuzuvchilar:** Berdiyeva Dilnoza Abdiyusupovna

**Taqrizchilar:** Matnazarova Nargiza Yuldashevna

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI  
VAZIRINING 2025-yil 20-fevraldagи “2024/2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim  
muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va  
o‘tkazish to‘g‘risida”gi 65-son buyrug‘i**

O‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun 2024/2025 – o‘quv yilida 9 – sinflarda yakuniy imtihon amaliy shaklda o‘tkaziladi. 9 – sinfini tugatgan o‘quvchilar jismoniy tarbiya fanidan ta’lim dasturi bo‘yicha standartlar asosida belgilangan kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Har bir imtihon biletining topshiriqlari jismoniy tarbiya fani bo‘yicha 8 – 9 – sinflar mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada topshiriqlar bo‘yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O‘quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 10 ta bilet (5 ta qiz bolalar uchun, 5 ta o‘g‘il bolalar uchun) taqdim etiladi. Biletda o‘quvchiga 3 tadan (1 ta yengil atletika, 1 ta gimnastika va 1 ta sport o‘yinlari) amaliy topshiriq beriladi. Bilet topshiriqlarini amaliy bajarib berish vaqtiga, biletning o‘zida ko‘rsatilgan. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur’a tashlash yo‘li bilan 2 ta variant tuzilib, e‘lon qilinadi.

O‘quvchilarning jismoniy tarbiya fanidan amaliy topshiriqlarni bajarishlari 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30 – 65% – “qoniqarli”;

66 – 85% – “yaxshi”;

86 – 100% – “a‘lo”

baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy tarbiya	Soni	Qo‘llash
Yengil atletika	1	1
Gimnastika	1	1

<b>Sport o‘yinlari</b>	<b>1</b>	<b>1</b>
	<b>3</b>	<b>3</b>

## **TOPSHIRIQ BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI**

Nº	Bo‘lim nomi	Topshiriq turi	Baholash mezoni
1	<b>Yengil atletika</b>	Amaliy	<p>To‘liq, to‘g‘ri va me’yoriy talab asosida bajarilgan topshiriqqa <b>30 ball</b> qo‘yiladi.</p> <p><b>Izoh:</b> topshiriqni belgilangan me’yorlar asosida bajarishda mos ravishda <b>8 ball, 15 ball, 23 ball, 30 ball</b> ajratiladi.</p>
2	<b>Gimnastika</b>	Amaliy	<p>To‘liq, to‘g‘ri va me’yoriy talab asosida bajarilgan topshiriqqa <b>30 ball</b> qo‘yiladi.</p> <p><b>Izoh:</b> topshiriqni belgilangan me’yorlar asosida bajarishda mos ravishda <b>8 ball, 15 ball, 23 ball, 30 ball</b> ajratiladi.</p>
3	<b>Sport o‘yinlari</b>	Amaliy	<p>To‘liq, to‘g‘ri va me’yoriy talab asosida bajarilgan topshiriqqa <b>40 ball</b> qo‘yiladi.</p> <p><b>Izoh:</b> topshiriqni belgilangan me’yorlar asosida bajarishda mos ravishda <b>10 ball, 20 ball, 30 ball, 40 ball</b> ajratiladi.</p>

## GIMNASTIKA

**Tayanib sakrash.** Gimnastik “kozyol” dan ko‘prikchani uzoqlashtirish va yaqinlashtirish bilan depsinib sakrashlar; uzunasiga o‘rnatilgan gimnastik “kozyol” ustidan tayanib sakrash (o‘g‘il bolalar 120 cm balandlikdagi gimnastika ko‘prigi oralig‘i 1 m oraliqda) oyoqlarni kerib sakrash.

Qiz bolalar 110 cm balandlikdagi uzunasiga o‘rnatilgan gimnastik “kozyol” ustidan oyoqlarni kerib, sakrab o‘tish; yonlama qo‘yilgan gimnastik “kozyol” ustidan oyoqlarni bukib sakrab o‘tishlar.

**Tirmashib chiqish.** 5 m li arqonga, qo‘llar yordamida (vaqt hisobiga) tirmashib chiqish; to‘xtab-to‘xtab tirmashib chiqish (ma’lum balandlikda to‘xtash uchun belgilar qo‘yiladi);

**Osilishlar va tayanishlar:** past turnikda osilishdan kuch bilan tayanishga ko‘tarilish; gavdani bukib-yozish holatidan tebranishga o‘tish; osilib tebranishda gavdani keskin yozish bilan tayanchga ko‘tarilish; turnikda tayanishdan oyoq va gavda bilan oldinga yarim oysimon harakat qilib, osilishga tushib tebranish; baland turnikda osilgan holatda qo‘llarni bukish va yozish; Polda qo‘llarga tayanib qo‘lni bukish va yozish. Qiz bolalar-past turnikda (balandligi 100 cm) oyoqlar yerga tayanib, qo‘llarga osilgan holatda, qollarni bukish va yozish; gimnastik orindiqda qo‘llarga tayanib qo‘llarni bukish va yozish.

O‘g‘il bolalar; brussda qo‘llarda tayangan holda tebranib, oldinga siltanish bilan tayanchga ko‘tarilish; gimnastik brussda tirsakka tayanib turishdan tebranib, orqaga siltanish bilan tayanchga ko‘tarilish; gimnastik brussda tayanib oldindan va orqadan tebranishda, yon tomonlarga 90° burilib sakrab tushishlar.

**Akrobatika.** O‘g‘il bolalar uchun: har xil dastlabki holatdan oldinga umbaloq oshish; 40-50 cm balandlikdagi buyumlar ustidan umbaloq oshib o‘tish; yugurib kelib uzoqlikka umbaloq oshish; sherigi yordamida qo‘llarda yoki boshda tik turish;

**Qizlar uchun:** ikki marta oldinga, orqaga umbaloq oshish; kurakda turish; tik turgan holatdan “ko‘prik” hosil qilish va yon tomonga aylanib turish. Milliy raqs elementlarini uyg‘unlashtirish; “Munojot”, “Rohat”, “Tanovor” va boshqalar ritmik gimnastika elementlari; qo‘llar yordamida assimetrik harakatlар bilan har xil me'yorda turli mashqlar bajarish; har xil tezlikda qo‘llar bilan (tulki holatda) mashqlar bajarishda qo‘llarning yo‘nalish harakatlari holatini tebrantirish; 85-90 cm li gardish bilan mashqlar bajarish. Raqs harakatlari dinamikasi va ohangiga mos ravishda murakkablashtirish; xalq raqslari elementlaridan iborat mashqlar.

**Muvozanatni saqlash mashqlari.** Depsinib yakkacho‘pga chiqish; yakkacho‘pga tayanishdan bir oyoqni oshirish bilan 90° burilib minib o‘tirish, ikki oyoqda va holatlarini almashlab sakrashlar; yarim cho‘qqaygan holatda oyoqlar bilan siltanib yurish, oyoq uchlariga ko‘tarilib burilishlar, o‘ng (chap) oyoqda “qaldirg‘och” hosil qilish; o‘tirib burchak hosil qilish va qo‘llarga tayanib, oyoqlarni kerib orqaga siltanish bilan kerishib

sakrab tushish.

## YENGIL ATLETIKA

**Yugurish.** Maxsus yugurish mashqlar texnikasini takomillashtirish; past startdan chiqib 60 metrga yugurish; 4x60 metrga estafeta yugurish; 200-300 metrdan 4-5 marta yurish bilan almashlab yugurish; turli masofalarga bir me'yorda 6 daqiqa davomida yengil yugurish.

**Mokisimon yugurish** 4x10 m mokisimon yugurish

**Kross tayyorgarligi.** 800, 1000 m masofalarga yugurish; yurish bilan almashlab 6 daqiqa davomida yugurish; yo'nalishni o'zgartira borib past- baland yerlardan yugurish; 2000 m masofaga kross yugurish.

**Sakrash.** Balandlik va uzunlikka sakrashning maxsus mashqlari; yugurib kelib uzunlikka "oyoq bukish" usulida sakrash; yugurib kelib balandlikka "hatlab o'tish" usulida sakrash.

**Uloqtirish.** Turli holatlarda turgan joydan tennis koptogini uloqtirish; tennis koptogini mo'ljalga uloqtirish; tennis koptogini yugurib kelib uzoqlikka uloqtirish;

## SPORT O'YINLARI (futbol, basketbol, voleybol, qo'l to'pi)

**Basketbol.** Basketbol o'yini elementlari asosida har xil mashq usullarini bajarish; to'pni bir qo'lda olib yurish va uzatish; raqibni chetlab o'tish; to'pni bosh tomondan ikki qo'llab uzatish; shaxsiy va jamoaviy himoyani maydonda ushslash usullarini o'rgatish; 2x1x2 va 1x2x2 taktikalari; jarima to'plarini savatga tashlash; basketbol o'yini qoidasiga asosan ikki tomonlama o'yin; o'yinda hakamlik qilishni o'rgatish.

**Voleybol.** Juftlikda to'pni, to'r ustidan yuqoridan va pastdan bir – biriga uzatishlar; to'rdan qaytgan to'pni qabul qilish; to'pni qabul qilish va uzatish; texnik usullari; to'pni o'yinga kiritish usullari; to'r orqali xzarba usullari; to'siq qo'yish (yakka va juftlikda), himoyalanish usullari; hujumda va himoyada yakka, guruh va jamoaviy taktik harakatlar; Voleybol o'quv o'yini; Qoidalar asosida voleybol o'yini; Voleybol turish holatida harakatlanish; Voleybol o'yinida turish, harakatlanish, to'xtash, tezlashish elementlari texnikasini o'rganish va mustahkamlash; Tayanchda, harakatda, sakrashda to'pni orqaga uzatish texnikasini mustahkamlash; to'rga teskari turgan holda, to'pni raqib maydonagi nishonga tushurish; to'pni tepadan o'yinga kiritishni mustahkamlash; to'g'ridan hujum zarbasi berishni mustahkamlash; to'pni pastdan qabul qilishni mustahkamlash; Oldinga yiqilib, bir qo'lda qabul qilishni mustahkamlash; soddalashtirilgan qoidalar asosida voleybol o'yini; Ikki tomonlama o'yin.

**Qo'l to'pi** Gandbolda maxsus texnika mashqlari qo'llash orqali o'quvchilarda tezkorlik,

kuch, oriyentatsiya kabi sifatlarni rivojlantirish; to‘p bilan ishslash texnikasini mukammallashtirish (tezlikda joy almashish jarayonida har xil usulda to‘p uzatishlar, vosmyorka, oldinlab ketishda to‘p qabul qilishlar); himoya usullarini mukammallashtirish, raqiblarni himoya maydoniga yaqinlashtirmaslik, masofada ushlab turishga erishish, lineyniy o‘yinchini nazorat qilish; hujum taktikasini (4x1, 3x2, vosmyorka, styajka ya’ni raqib himoyasini chalg‘itish, to‘sinq qo‘yish) mukammallashtirish; darvozabonni texnik xolatini mukammallashtirish; o‘rganilgan elementlar asosida musobaqa shaklida o‘yin.

**Futbol.** Harakatlanib kelayotgan to‘plarni oyoq panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to‘xtatish; uchib kelayotgan to‘pni sakrab bosh bilan urib qaytarishni bajarish; to‘pni harakat yo‘nalishini o‘zgartirib olib yurish, chalg‘itish harakatlarini qo‘llay olish; to‘pni raqibdan tortib olish; to‘pni darvozaga bosh bilan aniq yo‘naltirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish; o‘ng va chap oyoq bilan uzoqqa tepishni takomillashtirish; o‘quvchilarni raqibdan to‘pni olib qo‘yish texnikasi; tik turgan holatda to‘pni tovon bilan to‘xtatish; texnika va taktika usullari; futbol qoidasiga ko‘ra ikki tomonlama o‘yin; musobaqlarda hakamlik qilish.

## IMTIHON MATERIALLARI

Nº	Bo‘limlar	Topshiriqlar	Ball	Variant
1	Yengil atletika	Past startdan 60 metr masofaga yugurish	30	1(Q)
2	Gimnastika	Muvozanatni saqlash mashqlarini gimnastik yakkacho‘pda bajarish	30	
3	Sport o‘yinlari	Gandbol to‘pni texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga olib yurish	40	
4	Yengil atletika	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish	30	2(Q)
5	Gimnastika	Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastika “kozyol” i ustidan oyoqlarni kerib sakrab o‘tish	30	
6	Sport o‘yinlari	Voleybol to‘pni o‘yinga kiritish. To‘pni 5 imkoniyatda raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirish	40	

7	Yengil atletika	Yurish bilan almashlab 6 daqiqa davomida yugurish	30	
8	Gimnastika	Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasi: Ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish	30	3(Q)
9	Sport o‘yinlari	Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pini 8 imkoniyatdan tashlash	40	
10	Yengil atletika	4 x 10 metrga mokisimon yugurish	30	
11	Gimnastika	Arg‘amchida 1 daqiqa davomida sakrash	30	4(Q)
12	Sport o‘yinlari	Voleybol to‘pini ikki qo‘lda bosh ustida o‘z—o‘ziga oshirish	40	
13	Yengil atletika	Yugurib kelib kichik (150 gr) tennis to‘pini uzoqlikka uloqtirish	30	
14	Gimnastika	Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukish va yozish	30	5(Q)
15	Sport o‘yinlari	Futbol to‘pini “aut” dan o‘yinga kiritish	40	
16	Yengil atletika	Past startdan 60 metr masofaga yugurish	30	
17	Gimnastika	Baland turnikda tortilish	30	
18	Sport o‘yinlari	Qo‘l to‘pini, texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to‘pni urib yugurish	40	1(O‘)
19	Yengil atletika	2000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish	30	2(O‘)

20	Gimnastika	Gimnastika ko‘prigi bilan 1 metr oraliqda uzunasiga o‘rnatilgan, balandligi 120 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan tayanib oyoqlarni kerib sakrash	30	
21	Sport o‘yinlari	Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. To‘pini 5 imkoniyatda raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirish	40	
22	Yengil atletika	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish	30	
23	Gimnastika	Qo‘llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda 1 daqiqada davomida gavdani ko‘tarish va tushurish	30	3(O‘)
24	Sport o‘yinlari	Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pini 8 imkoniyatdan tashlash	40	
25	Yengil atletika	4 x 10 metrga mokisimon yugurish	30	4(O‘)
26	Gimnastika	Arg‘amchida 1 daqiqa davomida sakrash	30	
27	Sport o‘yinlari	Futbol to‘pini o‘ng va chap oyoqda zarb bilan uzoqqa tepish	40	
28	Yengil atletika	Yugurib kelib kichik(150 gr) tennis to‘pini uzoqlikka uloqtirish	30	5(O‘)
29	Gimnastika	Polga tayangan holda, qo‘llarni bukish va yozish	30	
30	Sport o‘yinlari	Futbol to‘pini “aut” dan o‘yinga kiritish	40	

### 9-sinflar uchun yakuniy imtihon biletlari

### QIZ BOLALAR

### 1-BILET

**1. Yengil atletika.** Past startdan 60 metr masofaga yugurish.

**Me'yor:** (soniya) 9,5 – 10,0 – 10,5

**2. Gimnastika.** Muvozanatni saqlash mashqlarini gimnastik yakkacho‘pda bajarish (oddiy yurish, o‘tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, “Qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarini silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish).

**Me'yor:** To‘g‘ri bajarish texnikasini baholash.

**3. Gandbol.** Qo‘l to‘pini bajarish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga olib yurish.

**Me'yor:** (soniya) 6,8 – 6,9 – 7,0

## 2-BILET

**1. Yengil atletika.** 1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

**Me'yor:** (daqqaq) 5,00 – 5,30 – 6,00

**2.Gimnastika.** Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o‘tish.

**Me'yor:** To‘g‘ri bajarish texnikasini baholash.

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. To‘pini 5 imkoniyatda raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirish.

**Me'yor:** (marta) 3 – 2 – 1

## 3-BILET

**1. Yengil atletika.** Yurish bilan almashlab 6 daqiqa davomida yugurish.

**Me'yor:** (metr) 1200 – 1000 – 800

**2.Gimnastika.** Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasi: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish.

**Me'yor:** To‘g‘ri bajarish texnikasini baholash.

**3. Basketbol.** Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pini 8 imkoniyatdan tashlash.

**Me'yor:** (marta) 4 – 3 – 2

## 4-BILET

**1. Yengil atletika.** 4 x 10 metrga mokisimon yugurish.

**Me'yor.** (soniya) 10,0 – 10,5 – 11,0

**2. Gimnastika.** Arg‘amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

**Me'yor:** (marta) 100 – 90 — 80

**3.Voleybol.** Voleybol to‘pini ikki qo‘lda bosh ustida o‘z–o‘ziga oshirish.

**Me’yor:** (marta) 20 – 15 – 10

## 5-BILET

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib kichik (150 gr) tennis to‘pini uzoqlikka uloqtirish.

**Me’yor:** (metr) 28 – 23 – 18

**2. Gimnastika.** Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukish va yozish (bajarish texnikasiga e’tibor berish).

**Me’yor:** (marta) 13 – 10 – 8

**3. Futbol.** Futbol to‘pini “aut” dan o‘yinga kiritish (bajarish texnikasiga e’tibor berish).

**Me’yor:** (metr) 8 – 7 – 5

## O‘G‘IL BOLALAR

### 1-BILET

**1. Yengil atletika.** Past startdan 60 metr masofaga yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 9,0 – 9,5 – 10,0

**2. Gimnastika.** Baland turnikda tortilish (bajarish texnikasiga e’tibor berish).

**Me’yor:** (marta) 9 – 7 – 5

**3. Gандbol.** Qo‘l to‘pini bajarish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga olib yugurish.

**Me’yor:** (soniya) 6,6 – 6,7 – 6,8

### 2-BILET

**1. Yengil atletika.** 2000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

**Me’yor:** (daqiqa) 9,30 – 10,00 – 11,00

**2.Gimnastika.** Gimnastika ko‘prigi bilan 1 metr oraliqda uzunasiga o‘rnatilgan, balandligi 120 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan tayanib oyoqlarni kerib sakrash.

**Me’yor:** To‘g‘ri bajarish texnikasini baholash.

**3. Voleybol.** Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. To‘pini 5 imkoniyatda raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirish.

**Me’yor:** (marta) 4 – 3 – 2

### 3-BILET

**1. Yengil atletika.** 1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurish.

**Me'yor:** (daqiqa) 3,40 — 4,00 – 4,30

**2.Gimnastika.** Qo'llar bosh orqasida, chalqancha yotgan holda 1 daqiqa davomida gavdani ko'tarish va tushurish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

**Me'yor:** (marta) 25 – 23 – 18

**3. Basketbol.** Basketbol savatiga belgilangan jarima to'pini 8 imkoniyatdan tashlash.

**Me'yor:** (marta) 5 – 4 – 2

#### **4-BILET**

**1. Yengil atletika.** 4 x 10 metrga mokisimon yugurish.

**Me'yor.** (soniya) 9,5 – 9,8 – 10,3

**2. Gimnastika.** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.

**Me'yor:** (marta) 90 – 80 – 70

**3. Futbol.** Futbol to'pini o'ng va chap oyoqda zarb bilan uzoqqa tepish (o'ng va chap oyoq natijalari yig'indisi baholanadi).

**Me'yor:** (metr) 60 – 55 – 50

#### **5-BILET**

**1. Yengil atletika.** Yugurib kelib kichik (150 gr) tennis to'pini uzoqlikka uloqtirish.

**Me'yor:** (metr) 45 – 40 – 33

**2. Gimnastika.** Polga tayangan holda, qo'llarni bukish va yozish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

**Me'yor:** (marta) 23 – 17 – 13

**3. Futbol:** Futbol to'pini "aut" dan o'yinga kiritish (bajarish texnikasiga e'tibor berish).

**Me'yor:** (metr) 12 – 10 – 8

#### **9-sinf yakuniy imtihoni bo'yicha baholash mezonlari**

<b>№ Topshiriq</b>	<b>1-bilet (qizlar)</b>	<b>Ball</b>
------------------------	-------------------------	-------------

	Past startdan 60 metr masofaga yugurishda past startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda topshiriqni 9,5 soniya va undan kam vaqtda bajarsa.	<b>30</b>
1	Past startdan 60 metr masofaga yugurish past startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda topshiriqni 9,6 soniyadan 10,0 soniyagacha bajarsa.	<b>23</b>
1	Past startdan 60 metr masofaga yugurish yugurishda past startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda topshiriqni 10,1 soniyadan 10,5 soniyagacha bajarsa.	<b>15</b>
1	Past startdan 60 metr masofaga yugurish yugurishda past startda turish, chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda topshiriqni 10,6 soniya va undan ko‘p vaqtda bajarsa.	<b>8</b>
2	Muvozanatni saqlash mashqlarini, gimnastik yakkacho‘pda oddiy yurish, o‘tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, “Qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarni silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish mashqlarini texnikasiga ahamiyat qaratgan holda to‘g‘ri bajarishi.	<b>30</b>
2	Muvozanatni saqlash mashqlarini, gimnastik yakkacho‘pda oddiy yurish, o‘tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, “Qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarni silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish mashqlarini texnikasiga ahamiyat qaratgan holda qisman noaniq bajarishi.	<b>23</b>

	Muvozanatni saqlash mashqlarini, gimnastik yakkacho‘pda oddiy yurish, o‘tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, “Qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarni silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish mashqlarini texnikasiga ahamiyat qaratgan holda noaniq bajarishi.	<b>15</b>
	Muvozanatni saqlash mashqlarini, gimnastik yakkacho‘pda oddiy yurish, o‘tirib burilish, oyoqlarini silkitib yurish, “Qaldirg‘och” hosil qilish, oyoqlarni silkitib yurish, tik holatda burilish, oddiy yurish, sakrab tushish mashqlarini texnikasiga ahamiyat qaratgan holda bajara olmasligi.	<b>8</b>
3	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi to‘pni yerga urib yugurish, masofa bo‘ylab to‘pni yerga urib yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda Gandbol to‘pni 30 metr masofaga olib yurishni 6,8 soniya va undan kam vaqtida bajarsa.	<b>40</b>
	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi to‘pni yerga urib yugurish, masofa bo‘ylab to‘pni yerga urib yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda Gandbol to‘pni 30 metr masofaga olib yurishni 6,9 soniyada bajarsa.	<b>30</b>
	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi to‘pni yerga urib yugurish, masofa bo‘ylab to‘pni yerga urib yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda Gandbol to‘pni 30 metr masofaga olib yurishni 7,0 soniyada bajarsa.	<b>20</b>
	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi to‘pni yerga urib yugurish, masofa bo‘ylab to‘pni yerga urib yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasiga ahamiyat qaratgan holda Gandbol to‘pni 30 metr masofaga olib yurishni 7,1 soniya va undan ko‘p vaqtida bajarsa.	<b>10</b>
<b>JAMI:</b>		<b>100</b>

<b>№</b> <b>Topshiriq</b>	<b>2-bilet (qizlar)</b>	<b>Ball</b>
------------------------------	-------------------------	-------------

	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurishda startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasi asosida topshiriqni 5,00 daqiqa va undan kam vaqtida bajarsa.	<b>30</b>
1	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurishda startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasi asosida topshiriqni 5,10 daqidan 5,30 daqiqagach bajarsa	<b>23</b>
	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurishda startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasi asosida topshiriqni 5,40 daqidan 6,00 daqiqagacha bajarsa.	<b>15</b>
	1000 metr masofaga vaqt hisobga olingan holatda yugurishda startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikasi asosida topshiriqni 6,10 daqiqa va undan ko‘p vaqtida bajarsa.	<b>8</b>
	Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan sakrashda yugurib kelish, debsinish, tayanib sakrash va uchish, qo‘nish, muvozanat ushslash texnikalariga ahamiyat qaratgan holda oyoqlarni kerib sakrab o‘tishni to‘g‘ri bajarishi.	<b>30</b>
2	Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan sakrashda yugurib kelish, debsinish, tayanib sakrash va uchish, qo‘nish, muvozanat ushslash texnikalariga ahamiyat qaratgan holda oyoqlarni kerib sakrab o‘tishni qisman noaniq bajarishi.	<b>23</b>
	Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan sakrashda yugurib kelish, debsinish, tayanib sakrash va uchish, qo‘nish, muvozanat ushslash texnikalariga ahamiyat qaratgan holda oyoqlarni kerib sakrab o‘tishni noaniq bajarishi.	<b>15</b>

	Balandligi 110 cm bo‘lgan gimnastik “kozyol” ustidan sakrashda yugurib kelish, debsinish, tayanib sakrash va uchish, qo‘nish, muvozanat ushslash texnikalariga ahamiyat qaratgan holda oyoqlarni kerib sakrab o‘tishni bajara olmasligi.	<b>8</b>
3	Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. Turishi, chiziqni bosmasligi, murabbiy signaliga e’tibor berishi, to‘pga zarba berishi, belgilangan zonaga to‘pni tushira olishi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda to‘pni 5 imkoniyatdan jami 3 marta raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirishi.	<b>40</b>
	Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. Turishi, chiziqni bosmasligi, murabbiy signaliga e’tibor berishi, to‘pga zarba berishi, belgilangan zonaga to‘pni tushira olishi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda to‘pni 5 imkoniyatdan jami 2 marta raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirishi.	<b>30</b>
	Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. Turishi, chiziqni bosmasligi, murabbiy signaliga e’tibor berishi, to‘pga zarba berishi, belgilangan zonaga to‘pni tushira olishi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda to‘pni 5 imkoniyatdan jami 1 marta raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirishi.	<b>20</b>
	Voleybol to‘pini o‘yinga kiritish. Turishi, chiziqni bosmasligi, murabbiy signaliga e’tibor berishi, to‘pga zarba berishi, belgilangan zonaga to‘pni tushira olishi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda to‘pni 5 imkoniyatdan jami 0 marta raqib maydonining o‘ng va chap zonasiga tushirishi.	<b>10</b>
<b>JAMI:</b>		<b>100</b>

<b>№ Topshiriq</b>	<b>3-bilet (qizlar)</b>	<b>Ball</b>
1	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 6 daqiqa davomida yurish bilan almashlab yugurish topshirig‘ini bajarishda 1200 metr va undan uzoq masofani bosib o‘tsa.	<b>30</b>

	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 6 daqiqa davomida yurish bilan almashlab yugurish topshirig‘ini bajarishda 1000 metrdan 1199 metrgacha masofani bosib o‘tsa.	23
	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 6 daqiqa davomida yurish bilan almashlab yugurish topshirig‘ini bajarishda 800 metrdan 999 metrgacha masofani bosib o‘tsa.	15
	Startda turish, startdan chiqish, startdan keyingi yugurish, masofa bo‘ylab yugurish, finish (marra) chizig‘iga kirish va kesib kelish texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 6 daqiqa davomida yurish bilan almashlab yugurish topshirig‘ini bajarishda 799 metr va undan kam masofani bosib o‘tsa.	8
2	Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasini: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish mashqlarini texnikalariga ahamiyat qaratgan holda to‘g‘ri bajarishi.	30
	Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasini: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish mashqlarini texnikalariga ahamiyat qaratgan holda qisman noaniq bajarishi.	23
	Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasini: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish mashqlarini texnikalariga ahamiyat qaratgan holda noaniq bajarishi.	15
	Gimnastik elementlardan tuzilgan akrobatika kombinatsiyasini: ikki marta oldinga va bir marta orqaga o‘mbaloq oshish, kuraklarda turish, “ko‘prik” hosil qilish mashqlarini texnikalariga ahamiyat qaratgan holda bajara olmasligi.	8

	Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pi tashlashda turishi, oyoq va qo‘l holati, to‘pni ushlashi, ikki qo‘lda to‘pni ko‘krakdan tashlashi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 8 imkoniyatdan 4 marta va undan ko‘p tushirishi.	<b>40</b>
<b>3</b>	Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pi tashlashda turishi, oyoq va qo‘l holati, to‘pni ushlashi , ikki qo‘lda to‘pni ko‘krakdan tashlashi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 8 imkoniyatdan 3 marta tushirishi.	<b>30</b>
	Basketbol savatiga belgilangan jarima to‘pi tashlashda turishi, oyoq va qo‘l holati, to‘pni ushlashi , ikki qo‘lda to‘pni ko‘krakdan tashlashi texnikalariga ahamiyat qaratgan holda 8 imkoniyatdan 2 marta tushirishi.	<b>20</b>
